Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

# O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI VA AYOLLAR BANDLIGI: HUDUDIY TAFOVUTLAR TAHLILI

**Mamatova Oqila Abukaimovna**
“University of BUSINESS AND SCINCE”
Tel: +998905803032
https://doi.org/10.5281/zenodo.23170318

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalari va uning ayollar bandligiga ta’siri hududlar kesimida tahlil qilingan. Xizmatlar sohasi rivojlanishi hamda ayollar bandligi ko‘rsatkichlarining dinamikasi va hududiy tafovutlari baholangan. Tadqiqot natijalari asosida xizmatlar sohasining ayollar bandligini oshirishdagi ahamiyati bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** xizmatlar sohasi, ayollar bandligi, hududiy tafovut, mehnat bozori, xizmatlar hajmi, bandlik.

**Аннотация**

В статье проанализированы тенденции развития сферы услуг в Узбекистане и ее влияние на занятость женщин в региональном разрезе. Рассмотрены динамика показателей развития сферы услуг и занятости женщин, а также выявлены территориальные различия. На основе результатов исследования сформулированы выводы о роли сферы услуг в повышении занятости женщин.

**Ключевые слова:** сфера услуг, занятость женщин, региональные различия, рынок труда, объем услуг, занятость.

**Abstract**

This article analyzes the development trends of the service sector in Uzbekistan and its impact on women’s employment across regions. The dynamics of service sector development and women’s employment indicators are examined, with particular attention to regional differences. Based on the findings, conclusions are drawn regarding the role of the service sector in increasing women’s employment.

**Keywords:** service sector, women’s employment, regional differences, labor market, volume of services, employment.

## I. KIRISH

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishi yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ham xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi roli yildan-yilga kengayib, xizmatlarning yangi turlari, xususan, axborot-kommunikatsiya, moliyaviy, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa xizmatlar rivojlanmoqda. 2025-yil yakunlari bo‘yicha xizmatlar sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 595,1 trln so‘mni tashkil etib,

jami xizmatlarning 56,7 foizini tashkil qilgan [1]. Bu holat xizmatlar sektorining, ayniqsa, mehnat talab qiluvchi faoliyat turlari orqali bandlikni kengaytirish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasi rivojlanishining yana bir muhim jihati uning ayollar bandligini ta’minlashdagi o‘rnidir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida jami bandlar tarkibida ayollar ulushi 2016-yildagi 55,1 foizdan 2025-yilda 48,8 foizni tashkil etgan [2]. Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkich hududlar kesimida sezilarli farq qiladi. Masalan, 2025-yilda Jizzax viloyatida xizmatlar sohasida band ayollar ulushi 53,5 foiz, Navoiy viloyatida 54,4 foiz, Andijon viloyatida esa 46,3 foizni tashkil etgan [2]. Mazkur tafovutlar hududlarda xizmatlar sohasi rivojlanishi va uning ayollar bandligiga ta’sirini kompleks o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda xizmatlar sohasi rivojlanishining dinamikasini hamda ayollar bandligining o‘zgarishini hududlar kesimida tahlil qilish, mavjud hududiy tafovutlarni aniqlash va xizmatlar sektorining ayollar bandligini kengaytirishdagi imkoniyatlarini baholashdan iborat. Tadqiqotda xizmatlar sohasi va ayollar bandligining 2016–2025-yillardagi statistik ko‘rsatkichlari asosida hududlararo farqlar tahlil qilinadi.

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sish, tarkibiy transformatsiya va yangi ish o‘rinlarini yaratishning muhim manbalaridan biri sifatida xalqaro tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Jahon bankining O‘zbekiston xizmatlar sektoriga bag‘ishlangan tadqiqotida xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim drayveriga aylanayotgani, uning YAIMdagi ulushi 2023-yilda 43,9 foizga yetgani va xizmatlar sektoridagi bandlik 2022-yilda jami bandlikning qariyb 50 foizini tashkil etgani qayd etilgan [3]. Mazkur tadqiqotda xizmatlar sektorining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ish o‘rinlarini yaratish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan ham bog‘liqligi asoslab berilgan. Ayniqsa, eksportga yo‘naltirilgan va bilimga asoslangan xizmatlarni rivojlantirish mamlakatning kelgusidagi tarkibiy o‘zgarishlari uchun muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatiladi [3].

Ayollar bandligi masalasi bo‘yicha tadqiqotlarda esa mehnat bozoridagi gender tafovutlari, iqtisodiy faollik, bandlik sifati va tarmoqlar bo‘yicha mehnat taqsimoti asosiy tadqiqot yo‘nalishlari sifatida qaraladi. Xalqaro mehnat tashkiloti O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi holatini kompleks o‘rgangan holda, ayollar bandligi imkoniyatlariga iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [4]. Tahlillarda ayollarning, ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va boshqa ijtimoiy yo‘nalishlarda ko‘proq bandligi, yuqori daromadli ayrim tarmoqlarda esa ayollar ishtirokining nisbatan pastligi qayd etilgan [4]. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha gender baholashida ham ayollar iqtisodiy faolligining pastligi va mehnat bozoridagi gender tafovutlari mamlakatning mavjud iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi [5].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xizmatlar sohasi va ayollar bandligi alohida yo‘nalishlarda yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning hududiy kesimdagi o‘zaro bog‘liqligini uzoq muddatli statistik qatorlar asosida kompleks taqqoslash masalasi qo‘shimcha tadqiqotni talab qiladi. Xususan, O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining 2016–2025-yillar ma’lumotlarida xizmatlar sohasida ayollar ulushi hududlar bo‘yicha sezilarli farq qilishi kuzatiladi: 2025-yilda mazkur ko‘rsatkich Navoiy viloyatida 54,4 foiz, Jizzax viloyatida 53,5 foiz, Namangan viloyatida 48,5 foiz, Andijon

viloyatida 46,3 foizni tashkil etgan [2]. Shu sababli ushbu tadqiqotda mavjud ilmiy qarashlardan kelib chiqib, xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi bilan ayollar bandligining hududiy tafovutlarini birgalikda tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv xizmatlar sektorining turli hududlarda ayollar uchun bandlik imkoniyatlarini shakllantirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi.

## III. ASOSIY QISM

O'zbekistonda xizmatlar sohasi so'nggi yillarda iqtisodiy faollikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2023-yildagi 664 816,0 mlrd so'mdan 2024-yilda 840 146,5 mlrd so'mga, 2025-yilda esa 1 050 292,5 mlrd so'mga yetgan. Shunday qilib, ikki yil davomida xizmatlar hajmi qariyb 58,0 foizga oshgan. 2025-yil ma'lumotlari dastlabki statistik ma'lumotlar ekanini ham hisobga olish lozim [6].

**1-jadval.**

**O'zbekistonda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining hududlar bo'yicha dinamikasi[1]. (mlrd so'm)**

| Hudud | 2023 | 2024 | 2025 | 2025/2023, % |
|---|---|---|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 664 816,0 | 840 146,5 | 1 050 292,5 | 158,0 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 23 217,9 | 28 758,8 | 35 196,2 | 151,6 |
| Andijon viloyati | 34 359,1 | 43 233,1 | 53 969,6 | 157,1 |
| Buxoro viloyati | 28 440,1 | 34 441,6 | 42 659,2 | 150,0 |
| Jizzax viloyati | 16 156,2 | 19 950,5 | 24 612,9 | 152,3 |
| Qashqadaryo viloyati | 35 747,4 | 43 857,6 | 54 118,0 | 151,4 |
| Navoiy viloyati | 16 773,3 | 20 862,6 | 25 733,6 | 153,4 |
| Namangan viloyati | 34 930,3 | 44 128,5 | 56 282,9 | 161,1 |
| Samarqand viloyati | 47 746,7 | 61 018,0 | 78 163,0 | 163,7 |
| Surxondaryo viloyati | 23 467,1 | 28 655,2 | 35 561,3 | 151,6 |
| Sirdaryo viloyati | 9 513,9 | 11 967,6 | 14 611,4 | 153,6 |
| Toshkent viloyati | 46 267,2 | 57 341,7 | 71 783,7 | 155,2 |
| Farg'ona viloyati | 45 227,8 | 56 780,6 | 71 765,9 | 158,7 |
| Xorazm viloyati | 23 014,5 | 29 193,0 | 36 911,6 | 160,4 |
| Toshkent shahri | 238 502,6 | 310 103,4 | 397 414,2 | 166,6 |

Jadval ma'lumotlari hududlar o'rtasida xizmatlar bozorining rivojlanish ko'lami sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatadi. 2025-yilda eng katta xizmatlar hajmi Toshkent shahrida 397 414,2 mlrd so'mni tashkil etib, respublika jami hajmining qariyb 37,8 foiziga teng bo'lgan. Undan keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati — 78 163,0 mlrd so'm, Toshkent viloyati — 71 783,7 mlrd so'm va Farg'ona viloyati — 71 765,9 mlrd so'm ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi [6].

Shu bilan birga, xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari hududlar bo'yicha bir xil emas. 2023–2025-yillarda Toshkent shahrida xizmatlar hajmi 66,6 foizga, Samarqand viloyatida 63,7 foizga, Namangan viloyatida 61,1 foizga, Xorazm viloyatida 60,4 foizga oshgan. Mazkur holat xizmatlar sohasining faqat hajm jihatidan emas, balki hududiy o'sish sur'atlari bo'yicha ham differensial rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bunda xizmatlar hajmining yuqoriligi har doim ham ayollar bandligining yuqori darajasini

[1] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, SIAT ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [6].

anglatmasligi mumkin. Shu sababli xizmatlar rivojlanishini ayollar bandligi ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

**2-jadval.**


**Xizmatlar sohasida jami bandlar tarkibida ayollar ulushining hududlar bo‘yicha o‘zgarishi[2]. (foizda)**

| Hudud | 2023 | 2024 | 2025 | 2025–2023, foiz punkt |
|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 47,4 | 48,3 | 48,8 | +1,4 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 50,1 | 52,1 | 51,2 | +1,1 |
| Andijon viloyati | 38,3 | 45,6 | 46,3 | +8,0 |
| Buxoro viloyati | 47,6 | 49,7 | 49,6 | +2,0 |
| Jizzax viloyati | 44,5 | 50,3 | 53,5 | +9,0 |
| Qashqadaryo viloyati | 42,5 | 47,8 | 49,8 | +7,3 |
| Navoiy viloyati | 57,5 | 53,7 | 54,4 | −3,1 |
| Namangan viloyati | 49,6 | 48,0 | 48,5 | −1,1 |
| Samarqand viloyati | 44,9 | 47,9 | 48,3 | +3,4 |
| Surxondaryo viloyati | 39,7 | 45,0 | 45,9 | +6,2 |
| Sirdaryo viloyati | 45,3 | 47,5 | 50,2 | +4,9 |
| Toshkent viloyati | 51,3 | 49,5 | 50,6 | −0,7 |
| Farg‘ona viloyati | 51,8 | 48,8 | 48,8 | −3,0 |
| Xorazm viloyati | 54,7 | 51,9 | 49,0 | −5,7 |
| Toshkent shahri | 51,4 | 46,7 | 47,5 | −3,9 |

Ikkinchi jadval xizmatlar sohasida ayollar bandligining hududiy dinamikasi bir xil yo‘nalishda kechmaganini ko‘rsatadi. Respublika bo‘yicha xizmatlar sohasida jami bandlar tarkibida ayollar ulushi 2023-yildagi 47,4 foizdan 2025-yilda 48,8 foizga oshgan. Biroq hududlar kesimida ayrim hududlarda sezilarli o‘sish, boshqalarida esa pasayish kuzatilgan. Jumladan, Jizzax viloyatida ko‘rsatkich 44,5 foizdan 53,5 foizgacha, Andijon viloyatida 38,3 foizdan 46,3 foizgacha, Qashqadaryoda esa 42,5 foizdan 49,8 foizgacha oshgan [2].

Bunga qarama-qarshi ravishda Xorazm viloyatida ayollar ulushi 54,7 foizdan 49,0 foizgacha, Toshkent shahrida 51,4 foizdan 47,5 foizgacha, Farg‘ona viloyatida 51,8 foizdan 48,8 foizgacha kamaygan. Navoiy viloyatida ham 2023–2025-yillarda 57,5 foizdan 54,4 foizgacha pasayish kuzatilgan [2]. Bu natija xizmatlar sohasi hajmining o‘sishi bilan ayollar bandligi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri va avtomatik emasligini ko‘rsatadi. Demak, xizmatlar hajmining oshishi bilan bir qatorda xizmatlar tarkibi, mehnat talabchanligi, hududiy mehnat bozori va ayollarning iqtisodiy faolligiga ta’sir qiluvchi boshqa omillarni ham hisobga olish zarur.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari, SIAT [2].




**1-rasm. O‘zbekistonda xizmatlar hajmi va xizmatlar sohasida ayollar ulushi dinamikasi[3]**

2023-yilda xizmatlar hajmi 664 816,0 mlrd so‘m va xizmatlar sohasida ayollar ulushi 47,4 foizni; 2024-yilda mos ravishda 840 146,5 mlrd so‘m va 48,3 foizni; 2025-yilda 1 050 292,5 mlrd so‘m va 48,8 foizni tashkil etgan [2; 6].

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekistonda xizmatlar sohasi jadal sur’atlarda kengayayotganini ko‘rsatadi. Biroq xizmatlar bozorining hududiy hajmi bilan ayollar bandligidagi ulush o‘rtasida to‘liq mutanosiblik mavjud emas. Masalan, xizmatlar hajmi eng yuqori bo‘lgan Toshkent shahrida 2025-yilda ayollar ulushi 47,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, xizmatlar hajmi ancha past bo‘lgan Jizzax va Navoiy viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 53,5 va 54,4 foizni tashkil etgan [2; 6].

Bu holat “xizmatlar hajmi qancha katta bo‘lsa, ayollar bandligi ham shuncha yuqori bo‘ladi” degan sodda xulosani tasdiqlamaydi. Aksincha, hududiy xizmatlar tarkibi, xizmatlarning mehnat talabchanligi, ayollar uchun mavjud ish o‘rinlarining turi va sifati, tadbirkorlik imkoniyatlari hamda hududiy mehnat bozori xususiyatlarini alohida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, keyingi tahlilda xizmatlar sohasining tarkibiy turlari va ayollar bandligi o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqolaning asosiy ilmiy natijalaridan birini shakllantiradi.

## IV. XULOSA

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda xizmatlar sohasi so‘nggi yillarda yuqori sur’atlarda rivojlanib, hududlar iqtisodiy faolligi va bandlik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omilga aylanayotganini ko‘rsatdi. 2023–2025-yillarda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada oshgani xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq mazkur o‘sish hududlar bo‘yicha bir xil kechmayotgani, xizmatlar hajmi va uning o‘sish sur’atlarida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

Tahlillar xizmatlar sohasida ayollar bandligi ham hududlar bo‘yicha sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi. 2023–2025-yillarda respublika bo‘yicha xizmatlar sohasida bandlar tarkibida ayollar ulushi 47,4 foizdan 48,8 foizga oshgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda ushbu ko‘rsatkich sezilarli ravishda o‘sgan, boshqa

[3] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [2; 6].

hududlarda esa pasaygan. Xususan, Jizzax, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida ayollar ulushining oshishi kuzatilgan bo‘lsa, Xorazm, Farg‘ona va Toshkent shahrida pasayish qayd etilgan [2]. Bu holat xizmatlar sohasining miqdoriy o‘sishi o‘z-o‘zidan ayollar bandligining mutanosib ravishda ortishini ta’minlamasligini ko‘rsatadi.

Shu sababli hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish siyosatini ayollar bandligini oshirish vazifalari bilan uyg‘unlashtirish, xizmatlarning mehnat talabchan va ayollar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati yuqori bo‘lgan turlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, hududlarning xizmatlar salohiyati, mehnat resurslari tarkibi va mavjud infratuzilmasidan kelib chiqib differensial yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yo‘nalishlar xizmatlar sohasi orqali ayollar bandligini kengaytirishning hududiy imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos yaratadi.

## V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari, 2025-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT. “Xizmat ko‘rsatish sohasida jami bandlardan ayollarning ulushi”, 2016–2025-yillar.
3. World Bank. At Your Service?: The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2024.
4. Omeira, M. Women and the World of Work in Uzbekistan: Towards Gender Equality and Decent Work for All. International Labour Organization, 2020; updated edition, 2023.
5. World Bank. Uzbekistan Country Gender Assessment 2024. Washington, DC: World Bank, 2024.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, hududlar kesimida, 2010–2025-yillar. SIAT ochiq ma’lumotlar bazasi. — Toshkent, 2026. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi